

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA FLORISTIK VA FAUNISTIK OBRAZLAR

Xayriyeva Nargiza Ixtiyor qizi,

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Shukur Xolmirzayev hikoyalarida keltirilgan o'simlik va hayvonot dunyosiga oid obrazlar, ularning asar rivoji va badiiy maqsadni amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, badiiy-estetik xususiyatlari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Maqolada floristik va faunistik obrazlar vositasida yozuvchining hikoyachilik uslubi, realistik tasvir tamoyillari va milliy qadriyatlarini badiiy umumlashtirishdagi o'ziga xos yondashuvi ilmiy xulosalar asosida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: hikoya, flora, fauna, ism, personaj, obraz, xarakter.

Аннотация. В статье на научно-теоретической основе исследуются флористические и фаунистические образы в новеллистике Шукура Холмирзаева, определяется их функциональная роль в разворачивании сюжета, реализации авторского замысла, а также выявляются их художественно-эстетические свойства. На основе системного анализа эксплицируются специфика нарративного стиля писателя, принципы реалистического метода и оригинальный подход к художественной универсализации национальных ценностей посредством репрезентации образов природы.

Ключевые слова: рассказ, флора, фауна, имя, персонаж, художественный образ, литературный характер.

Abstract. This article offers a comprehensive scientific and theoretical analysis of floral and faunal imagery in Shukur Kholmiraev's short stories, examining their functional significance in plot development, the realization of the author's artistic intent, and their aesthetic attributes. Drawing upon rigorous textual analysis, the study elucidates the writer's narrative technique, the principles of his realistic depiction, and his distinctive approach to the artistic generalization of national values through the integration of floristic and faunistic motifs.

Keywords: short story, flora, fauna, proper name, character, artistic image, literary characterization.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek hikoyachiligida Shukur Xolmirzayevning hissasi miqdor va sifatiga ko'ra betakror kichik nasriy asarlar yarata olganligi hamda adibning bu boradagi faoliyati ko'plab adabiyotshunoslar tomonidan Abdulla Qahhordan so'ng hikoya janri imkoniyatlarini bir pog'ona ko'tarib qo'yganligi bilan xarakterlanadi. Aytish joizki, yozuvchi hikoyalarining ushbu janr ustalari sanalgan zamondoshlari ijodidan farqli tomonlari talaygina. Chunonchi, adib kichik nasriy asarlarida inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni, uzib bo'lmas azaliy rishtalarni yanada mustahkamlaydi. Yozuvchi tabiatni, jamiki yaratilgan nihatda sevadi, asrashga intiladi. Hikoyaga ko'chgan ushbu xususiyat o'qiguchini ham befarq qoldirmaydi, nihoyatda ta'sirlantiradi. Adib fikrlari g'oyaga aylanadi, mafkura sifatiga kirib insonlarni tabiat bilan bir jon-u tan bo'lishga, atrof-muhitni asrashga da'vat etadi, safarbar qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Shukur Xolmirzayev ijodi adabiyotshunoslikda inson va tabiat uyg'unligini badiiy ifodalash bilan ajralib turadi. Tadqiqotlarda uning hikoyalarida flora va fauna obrazlari faqat tasviriy unsur emas, balki g'oyaviy-badiiy mazmuni ochib beruvchi muhim vosita sifatida talqin etiladi.[5]

Ilmiy manbalarda o‘simlik va hayvonot dunyosi tasviri matnda keng semantik ma’no kasb etib, inson ruhiyati va jamiyat munosabatlarini yoritishda xizmat qilishi ta’kidlanadi. Xolmirzayev hikoyalarda ham ushbu obrazlar ekologik va axloqiy qarashlarni ifodalovchi badiiy kod sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda Shukur Xolmirzayev hikoyalarda floristik va faunistik obrazlarni tahlil qilishda lingvopoetik va badiiy-matn tahlili metodlaridan foydalanildi. Asosiy yondashuv sifatida struktural-semantik tahlil tanlanib, unda o‘simlik va hayvonot obrazlarining matndagi funksional vazifasi aniqlandi.

Shuningdek, qiyosiy va kontent-tahlil usullari orqali flora va fauna obrazlarining syujet rivoji, personaj xarakterini ochish hamda muallif g‘oyasini ifodalashdagi o‘rni o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy va interpretatsion metodlar ham qo‘llanilib, badiiy matnlar mazmuni ilmiy-nazariy asosda sharhlab berildi.

Mazkur metodologiya asosida floristik va faunistik obrazlarning Xolmirzayev hikoyachiligidagi estetik va g‘oyaviy funksiyalari tizimli ravishda yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Shukur Xolmirzayev hikoyalarda insonning atrof-muhit, tabiatga, o‘simlik va hayvonlar, qushlar-u baliqlar, sudralib yuruvchi hamda sutemizuvchi jonivorlar, jamiki mavjudotlar – jonli va jonsiz tabiat g‘aroyibotlari bilan uzviy aloqasi, alohida tasavvur qilib bo‘lmaydigan rishtalar asnonida ochib beriladi. Ona tabiat bilan hamnafaslik, hayvonot dunyosiga bo‘lgan munosabat, o‘simlik: gul-u daraxtlar, meva-yu sabzavotlar va shu kabi oziq moddalarning asar voqealari rivojidadagi ahamiyati, tashigan badiiy-falsafiy, ramziy ma’nolarini kuzatish mumkin. Ushbu jihatlarni hikoyalarning nomlanishidayoq sezish mumkin. Chunonchi, tabiatga oshnolik aks etgan “Bulut to‘sgan oy”, “Uyqusiz tun, “Olis yulduzlar ostida”, “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi”, “Ko‘k dengiz”, “Qish hangomasi”, “Bahor”, “Bodom qishda gulladi”, “Kuzda bahor havosi”, “Oy yorug‘ida”, “Zov ostida olishuv”, “Ora yo‘l”, “Tikan orasidagi odam”, “Arpali qishlog‘ida”, “Bahor o‘tdi”, “Shudring tushgan bedazor”, “Ota yurt”, “Oqtosh”; shuningdek, “Boychechak ochildi”, “Yovvoyi gul”, “Yovvoyi olmazor qaroqchisi”, “Olma yemadim” kabi hikoyalarni misol qilish mumkin. “Ot egasi”, “Omon ovchining o‘limi”, “Cho‘loq turna”, “Bandi burgut”, “Qushlar qishlovdan qaytdi”, “Qush tili”, “Qumrilar”, “Kakku sayrayapti”, “Ozodlik” (kaklik – asar syujetida muhim o‘rin tutgan), “Uchinchi hamroh” (bunda vafodor do‘st – It obrazi bosh qahramon sifatida tasvirlanadi) singari hikoyalarda esa faunistik obrazlar asarning ma’no-mazmunida muhim rol o‘ynagan. “Odam”, “Qariya”, “Farzand”, “Qochoq”, “Aqlli bolalar”, “Qaroqchilar”, “Xorun ar-Rashid”, “Jarga uchgan odam”, “Sanobar”, “Ahad Mirzo yig‘ladi”, “Yosuman” kabi hikoyalarda inson omili yetakchiligi seziladi. “O‘zbek xarakteri”, “O‘zbekning soddasi”, “Bir guzar odamlari”, “Xorazm, jonginam”, “Navro‘z, Navro‘z”, “Mangu yo‘ldosh” (Navro‘z bayrami haqida) singari hikoyalarda milliyligimiz bo‘y ko‘rsatgan. “Ustoz”, “Yozuvchi”, “Jo‘raboshi”, “Podachi”, “Qurt sotuvchi”, “Keksa g‘ijjakchi”, “Sirli militsioner”, “Omon ovchining o‘limi”da kasb-kor, faoliyat-jarayon bilan bog‘liq qarashlar

ustuvorligi seziladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, bolalalar o‘yinlari haqida tasvirlar mavjud bo‘lgan “To‘p o‘yin”, “Chillak o‘yin”, “Quloqcho‘zma” deb nomlangan hikoyalarda esa beg‘ubor bolalik hamda samimiy do‘stlik to‘g‘risida ajib voqea va hodisalar tasvirlanadi. “Qadimda bo‘lgan ekan”, “Hayot abadiy”, “Og‘ir tosh ko‘chsa”, “Bitikli tosh”, “Kimsasiz hovli”, “Hukumat”, “Haykal”, “Yig‘i”, “Arosat”, “Uh”, “Kechagi kun – kecha”, “Darvesh”, “Bir ko‘rgan tanish”, “...Ikki ko‘rgan bilish”, “Nimadir yo‘q bo‘ldi”, “Miltiq otildi”, “Sog‘inch”, “Ko‘ngil” kabilar, shuningdek, mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoy haqida “Tanholik” hikoyasida falsafiy masalalar yechimi hamda pinhon tuyg‘ular tarannumiga oid qarashlar ifoda etilgan.

“Fauna – (nem. Fauna – hayvonot dunyosi; Rim mifologiyasida: dala va o‘rmonlar ma‘budasi) biror hudud, mamlakat yoki geologik davrning hayvonot dunyosi, ularda yashagan yoki yashayotgan hayvonlar majmuyi”. [1] Fauna dunyosi flora olami bilan yonma-yon turuvchi, borliqning ajralmas ikki bo‘lagidir. Uning vakillari o‘simliklardan erkin harakatlana olishi, geterotrof [2] oziqlanishi hamda asab sistemasi taraqqiy etganligi bilan farqlanadi.

“Flora – (lotincha Flora – Rim mifologiyasida: gullar, bahor va yoshlik ma‘budasi; flos, floris – gul) Yer kurrasining biror qismida yoki biror geologik davrda mavjud bo‘lgan barcha o‘simliklar majmuyi; o‘simliklar dunyosi”. [3]

Adibning “Qush tili” hikoyasi “Tangrim, bolalar bilan hayvonlarni o‘z panohingda asra” (Amerikalik rejissor Kramer yaratgan filmning nomi) epigrafi bilan boshlanadi. Hikoyada tabiat musavvir qalami bilan chizilgandek mahorat bilan so‘z vositasida tasvirlanar ekan, dastlab qora qushlar tilga olinadi, mayna va mushuk ham asar rivojida muhim o‘rin tutadi. It, chigirtka, qo‘ng‘iz, jigarrang kapalak, chuvalchang, baliq, to‘tiqush, qaldirg‘och kabi qush, hasharot va uy hayvonlari obrazlari ishtirok etadiki, ular asar syujetining hakatlantiruvchilari sifatida namoyon bo‘ladi. Insonning tabiat bilan aloqasi, ta’sirlashuvi hayvon va qushlar, shuningdek, hasharotlarsiz yuzaga kelmasligi hikoya davomida o‘z isbotini topadi. Hikoyada o‘qdan jarohatlangan mayna, uni qutqarishga urinayotgan Qamariddin va uning o‘g‘li Jahongirni, ular misolida hayvonlarga g‘amxo‘r insonlarning umumiy obrazini ko‘ramiz. Qamariddin Jahongirga maynaning mahoratligini, mushukka o‘xshab miyovlashi, xohlasa, it bo‘lib hurishi yoki bulbulday sayray olishi ham mumkinligini aytadi. Hikoyada qush tilining shirasi va serqirraligi mayna vositasida ochib beriladi.

“Qush tili” hikoyasida uy hayvonlari, qushlar va jami zaboni bor ongsiz jonzotlarga mehr-shafqat ko‘rsatish, ularni asrashga da‘vat etiladi. Chunonchi, Qamariddin o‘g‘li bilan suhbatida maynani otib jarohatlagan kishilar harakatiga shunday munosabat bildiradi: “...Odamzodning fe‘li o‘zi g‘alati. Bir nima deb bo‘lmaydi...Bilasanmi, biz odamlar ham qaysidir hayvonga, qaysidir qushga yoqamiz. Qay birlari bizni yomon ko‘rishadi... Xo‘sh, o‘z tillarida bizni muhokama qilishadi...”. [4.16] Bu o‘rinda tabiatni sevuvchi muallif Qamariddin tilidan o‘z fikrlarini bayon etgandek tasavvur uyg‘otadi.

Hikoyada o‘simlik va daraxtlar borasida ham falsafiy qarashlar beriladi: “...Daraxtlarni kesganda, ularning ham joni og‘rir ekan. Daraxt suvsiz qolsa, ingragan ovoz chiqararkan. Fan aniqlagan! Faqat biz – odamlar buni sezmaymiz!”.[4.19] Hayotiy kuzatishlardan kelib chiqib aytilgan yuqoridagi gaplar ham Qamariddin tilidan bayon qilinadi.

“...Bir donishmand aytgan ekan: “Inson hamma narsadan baxtsiz bo‘lganda ham, baribir shukr qilishi kerak. Chunki shuni ham ko‘rmasligi mumkin edi”. Zo‘r gap-a! Tushunyapsanmi?”.[4.20]

Muallif goh donishmand sifatida, goh Qamariddin zaboni orqali hayotiy qarashlari, tabiatdagi har tirik jon himoya va mehrga muhtojligi, insonga nisbatan zaif jonzotlar va o‘simlik, daraxtlarni avaylash lozimligi haqida kuyinib so‘zlaydi. Har qanday holatda, eng og‘ir damlarda ham faqat olg‘a intilishga chorlaydi. Shukr qilish eng buyuk ne‘matlardan biri ekanligiga o‘zini va atrofdagilarni ishontirishga urinadi.

Hikoya bosh qahramoni Qamariddin – texnikumda “Qadimgi dunyo tarixi” o‘qituvchisi bo‘lib, gazetalarga tarixiy mavzuda maqolalar yozib beradi. Shuning uchun ham atrofdagi voqealarga, nohaqliklarga befarq qaray olmaydi. Tabiatga o‘zgacha muhabbat qo‘ygani uning harakatlari, amallari va gap-so‘zlaridan anglashilib turadi. Chunonchi, “...Biz – juda loqaydmiz, xotin! Yoki o‘tmishimizda ulug‘ allomalarimiz shu qadar ko‘p bo‘lgan, tariximizda porloq odamlar shu qadar behisobki, biz ularga beparvo qarashga o‘rganib qolganmiz...”.[4.22]

Yuqoridagi kabi falsafiy mulohazalar, shonli tariximiz va ulug‘ ajdodlarimizga bo‘lgan hurmat va ehtirom Shukur Xolmirzayevning o‘z tilidan chiqayotgandek, go‘yo. Ushbu hikoya yozilgan 1982-yilda bu kabi vatanparvarlik, yurtsevarlikni adabiyotga singdirish, mardlarcha ayta olish shoir-u yozuvchilar uchun oson bo‘lmagan, albatta.

“...Tabiat shunaqa. Shunaqa, xotin! Bilasanmi, nima uchun tabiatni yaxshi ko‘raman? Bunda bepoyon bir mangulik bor!.. Mana juda xafasan, deylik. Yoki tarixda yuz bergan bir xatolikdan qalbing yara. Yoki juda xursandsan. Sababsiz xursandsan, deylik. Ana shunda tabiat qo‘yniga chiq – birdan xotirjam tortib qolasan, birdan! Dunyoning asli haqiqati mana shunda, deysan, xotin”.[4.26]

Muallifga uslubiga xos bo‘lgan tabiatni sevish, undagi barcha yaratilarni qadrlash va asrash yuqoridagi jumalardan sezish qiyin emas. Yozuvchi, tabiatga – oshno, do‘st. U hamisha o‘zi yaratgan obrazlar tilida gapiradi, ularni ham o‘z tilida so‘zlatadi. Inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur anglaydi hamda katta-yu kichik asarlariga singdira oladi.

Xulosa. Adib hikoyalarida bizni o‘rab turgan olam, atrof-muhit, tabiat ajoyibotlari, ularning inson omiliga ta‘siri va tutgan o‘rni borasida qarashlar, hayotiy voqealar qalamga olingan bo‘lib, ularda tabiatni sevish, jamiki jonzotlar – mo‘jizakor yaratilarning har biri o‘zgacha bir dunyo ekanligi, o‘n sakkiz ming olamning anglab bo‘lmas jumboqlari haqida so‘z boradi. Insonning hayvonot va nabotot dunyosi bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq

ekani, ularni ayro holda tasavvur qilib bo‘lmasligi, har bir maxluqotning hayotda o‘z o‘rni mavjudligi to‘g‘risidagi badiiy-falsafiy qarashlar asar tub mohiyatini aks ettiradi. Xulosa qilib aytganda, inson va tabiat birligi yozuvchi hikoyalari badiiyatining asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон миллий Энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006-2008. – Б. 335.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Geterotroflar>
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон миллий Энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006-2008. – Б. 351.
4. Xolmirzayev Sh. Tabassum. [Matn]: hikoyalar/ – Т.: Ziyo nashr, 2023. – 256b.
5. G‘afurov I. Oltin qoziq: mansuralar, esselar, adabiy o‘ylar, suhbatlar. / –Т.: Yangi asr avlodi, 2017. – 546 b.

